


104. Tengsizliklarni sonli nur yordamida yechish

Yondosh mavzu:
adabiyot.

Nur, koordinata,
tengsizlik.



1. Sonli nurda tasvirlangan obyektlarning koordinatalarini topping.




2. Bu qaysi ertak qahramoni ekanini topping. Uning:

- a) yoshi 1 000 dan oshgan;
- b) bo'yi 10 santimetrdan past;
- c) vazni bir tonnadan ko'p;
- d) hajmi bir litrdan kam.

Tengsizlikning barcha yechimlarini ko'rish uchun ular sonli nur (koordinata nuri)da belgilab chiqiladi.

$x < 8$ x soni 8 dan kichik.



$y \geq 8$ y soni 8 ga teng yoki undan katta.



104. Tengsizliklarni sonli nur yordamida yechish



3. Tengsizliklarning yechimlarini sonli nurda ko'rsating:

$$x < 5$$

$$y > 4$$

$$z < 1$$



4. Bir soatda Madina kitobdan 6 bet, Akmal esa Madinadan kamroq bet o'qidi. Akmal necha bet o'qigan bo'lishi mumkin? Javobni tengsizlik shaklida yozing. Mumkin bo'lgan barcha yechimlarni yozing.



5. O'qituvchi darsda bolalarga ertaklardan qiymatlarni solishtirishga doir masalalar topishni taklif qildi. Bolalar mana shunday masalalar topishdi: Bolalardan qaysi biri to'g'ri masala topgan? Shu masalaga doir ifoda tuzing va uni yeching.

Madina: "Yalmog'iz kampir 1680 yoshda, O'lmas Koshey esa undan 1360 yosh katta. Koshey necha yoshda?"

Jasur: "Uchta tarvuzning ichida 780 ta tilla tanga bor. Beshta shunday tarvuzning ichida nechta tilla tanga bo'ladi?"

Aziza: "Quyoshli shaharchada 2789 ta pakana yashaydi, Gullar shahrida esa 1354 ta kichkintoy yashaydi. Kichkintoylar pakanalardan nechta kam?"



6. O'z jamoangiz bilan birorta ertakdan shunday masala topingki, uni yechish uchun ikkita amal bajarish kerak bo'lsin. Sinf bo'yicha eng yaxshi masalani tanlang va uni yeching.



7. Bobur bir oyda 5 ta kitob o'qiydi.

Hozir u 10 yoshda bo'lsa, 18 yoshga kirguncha nechta kitobni o'qib tugatadi?



104. Tengsizliklarni sonli nur yordamida yechish



8. Misollarni yechishdagi xatolarni toping. Ularni to'g'ri yeching.

$$\begin{array}{r}
 + 1 2 1 3 4 6 \\
 3 5 0 2 \\
 \hline
 4 7 1 5 4 6
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r}
 - 5 7 3 8 2 9 \\
 2 8 0 5 4 \\
 \hline
 5 5 5 8 3 5
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r}
 \times 2 5 4 0 \\
 3 \\
 \hline
 7 6 2 3
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r}
 4 8 6 9 \\
 - 3 6 \\
 \hline
 1 2 \\
 - 9 \\
 \hline
 3 6 \\
 - 3 6 \\
 \hline
 0
 \end{array}$$

$$\begin{array}{r}
 - 8 6 3 6 1 7 \\
 8 5 \\
 \hline
 1 3 6 \\
 - 1 3 6 \\
 \hline
 0
 \end{array}$$



9. Pinokkio – Italiya ertaklaridagi yog'och bolaning ismi. Pinokkio yolg'on gapirsa, uning burni uzayib ketaveradi. Uning bo'yi – 1 m 4 dm, burnining uzunligi esa dastlab 9 cm bo'lgan. U har safar yolg'on gapirganida, burni ikki marta uzayib ketavergan. Pinokkioning burni bo'yidan ham katta bo'lib ketgandan keyin, u qo'rqib ketib, yolg'on gapirmay qo'ydi. Pinokkio necha marta yolg'on gapirgan?



10. Tengsizliklarning o'ng tomonini hisoblang va yechimlarini sonli nurda ko'rsating.

$$x < 326\ 714 - 250 \cdot 300 - 251\ 709$$

$$y \leq (38\ 056 + 5\ 808) : 4 - (907 + 189) \cdot 10$$



11. Bahodir yigit ilonlar bilan uch kecha jang qilibdi. Birinchi kecha u to'qqiz boshli ilon bilan jang qilibdi. Bahodir yigit uning hamma boshini qilich bilan kesib tashlabdi. Ikkinci kecha kelgan ilonning boshlari oldingisinkidan ikki marta ko'p ekan. Bahodir yigit uning boshlarini ham kesib tashlabdi. Uchinchi kuni kelgan ilonning boshlari esa oldingi ikkita ilonning boshlari nechta bo'lsa, shuncha ekan. Bahodir yigit shu uch kechada ilonlarning jami nechta boshini kesib tashlagan?